Qabul qilindi: 10-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 16-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 21-sentabr 2026-yil

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA QO‘SHIQ VA RAQS VOSITASIDA AXLOQIY-ESTETIK SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH

Nishonova Sevara Qochqorovna
Zarbdor tumani 2-son DMTT Musiqa rahbari

O‘zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq va sermazmun tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot va лishilik jamiyatida xalq o‘zining mumtoz musiqasi, folklor, xalq musiqasi, an’anaviy musiqa merosi singari ijrochilik maktablarini yaratgan va uning bardavomligini ta’minlab kelmoqda. Ushbu musiqiy meros bugungi kunda ham ma’naviy madaniyatning bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yunon faylasufi Platonning fikricha, davlatning kuch qudrati unda qanday musiqa qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga bog‘liq. U: “Davlat uchun insonni yuksaklikka ko‘tarishga yordam beruvchi musiqa kerak’,- deb hisoblagan. Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida musiqa haqida qimmatli fikrlar bildirgan. U musiqaning hissiy ta‘sir kuchiga yuqori baho berib, ruhiy kasalliklarni davolashda ham foyda berishini aytgan. U yana go‘dak tanasi chiniqishi uchun ikki narsa zarur, deb hisoblaydi: biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi onasining qo‘shig‘idir, ya‘ni allasi. Birinchisi tanasiga, ikkinchi ruhiga tegishlidir.

Musiqa hissiyotni ochib beruvchidir, shuning uchun uni “hissiyotlar tili” deb ataydilar. Bolada musiqani his etishini rivojlantirish, musiqiy tilni tushunishga o‘rgatish, ularning ijodiy fantaziyasini uyg‘otish musiqiy tarbiya oldidagi vazifalardandir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishda, shu bilan bir qatorda san‘atga bo‘lgan qiziqishini oshirishda musiqa san'atining o‘rni beqiyosdir. Yoshlikdan bolalarni san‘atga, musiqaga oshno qilish, ularda tabiatga, Ona vatanga mehr uyg‘otishga turtki beradi. Estetik va emotsional muhit musiqa olamida bolalarga emotsional qulayliklar yaratib undagi ijodga bo‘lgan qiziqishni shakllantiradi. Biroq musiqiy muhitning samarasi tashqi sharoitlargagina bog‘liq bo‘lmay, balki bolalarda qo‘shiq va raqsga rivojlanishini tartibga

soluvchi muloqot musiqiy nazariy hamda psihologok bilimlarga ham bog‘liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalari qo‘shiq kuylash jarayonida ular musiqani chuqurroq anglaydi. Qo‘shiqlarning matnini bolalar yodlash jarayonida bilim, tafakkuri, nutqi ravon bo‘ladi. Qo‘shiq kuylash bolalarni nutqini rivojlantiradi. Bola qo‘shiqni cho‘zib ijro etganida yangi so‘zlarni bo‘g‘inlab xatosiz aytishni o‘rganadi. Kichik guruh bolalariga qo‘shiq va raqsning oson turlari o‘rgatib boriladi. Raqsni ijro etish jarayonida qomatni to‘g‘ri tutish, qo‘llarni nozik harakatlantirishga o‘rgatiladi va asta sekin bu harakatlar murakkablashib boradi. Qo‘shiq matnining bolalarga xos soddagina bo‘lishi, ularda yod olishlari oson kechadi.

Turli yosh davrlarida bolalarning yoshiga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda mashqlar o‘rgatib boriladi. Katta hajdagi ijro etiladigan qo‘shiqlar ularga qiyinchilik tug‘diradi, albatta, chunki ularning tovush diapazonlari yaxshi taraqqiy etmagan bo‘ladi. Mashg‘ulotlarni olib borishda tarbiyachi turli o‘yinlardan foydalanishi, mashg‘ulot vaqtida boshqa mavzularga o‘tib bolalarni charchash yoki bezib qolish holatlaridan saqlashi lozim bo‘ladi. Bolalar diqqatini bir topshiriqdan ikkinchi topshiriqqa ko‘chirib turish kerak. Masalan, mashg‘ulot boshlanishida fortepiano yoki milliy cholg‘ularda bolalarga tanish bo‘lgan kuyni chalib, ularning diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shundan so‘ng dastur asosidagi qo‘shiq kuylashni boshlash mumkin. So‘ngra tarbiyachi yana bir yangi qo‘shiq kuylab beradi va qo‘shiq haqida suhbat o‘tkazadi hamda uni o‘rgatishga kirishadi. Birinchi misra o‘rganib bo‘lingach, tarbiyachi yangi materialni tushuntirishga o‘tadi yoki musiqa savodidan oldingi darslarda o‘tilganlarni takrorlaydi. Shundan so‘ng bolalarga qo‘shiqdan keyin dam berish maqsadida musiqa tinglash qismiga o‘tiladi.

Bolalar xalq kuylari va obrazlarini ijro etayotib, xalq tili va kuyining hamohangligini, ravonligini bilib oladilar. Bu bolalarda vatanparvarlik hislarini tarbiyalaydi, musiqaviy didini shakllantiradi, kelgusida bolalarni zamonaviy va klassik kuylarni idrok eta olishga tayyorlaydi. Ashula va raqsga tushishga o‘rgatishda faqat to‘g‘ri aytish va to‘g‘ri harakat qilishni emas, balki ifodali aytish va yengil, chiroyli va latofat bilan raqsga tushishga o‘rgatiladi. Tarbiyachining turli texnik vositalar, audio tasmalar, musiqiy markazlar va

kompyuterlardan foydalangan holda mashg‘ulotlarni tashkil etishi, qo‘llaniladigan metod va usullarni tanlashda bolalarni yosh xususiyatlarini inobatga olish, ijro mahorati hamda ovoz rivojlanishini nazorat qilib borishi borliqni estetik idrok etish, anglash va bilish qobiliyatini rivojlanishiga xizmat qiladi. Maqsad kelgusi avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qiladigan, millat va g‘ururni umumbashariyat oldida o‘zining nafisligi, milliy kuy ohanglari ila ajralib turadigan jihatlari bilan ko‘rsata oladigan, o‘ziga xosligini har qanday tashqi ta’sirlardan saqlay oladigan etib voyaga yetkazishdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ilxomov M. Barkamol avlod tarbiyasida milliy musiqaning o‘rni va ahamiyati. «Zamonaviy ta’lim» jurnali, 2016-y., 9-son. 60-b.

2. Sharipova G. Musiqa va uning o‘qitish metodikasi. – T.: 2006

3. Maktabgacha pedagogika. F.R.Qodirova va b. – T.: «Tafakkur” nashriyoti, 2019-y. 210-b